

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MAKTAB O'QUVCHILARINI BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA MAKTAB VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Mirzaeva Kamola Uralovna

Xalqaro Nordic universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti

1-kurs magistranti mirzaevakamola25@gmail.com

Telefon raqami: +99 890 896 88 06

ABSTRAKT

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarini barkamol qilib tarbiyalash psixologik mexanizmlari tadqiq etilgan. Yoshlar tomonidan jinoyat sodir etishning sabablari, turli omillar, salbiy xislatlarni kamaytirish maqsadida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, barkamol shaxs, huquqbuzarlik, oila, turmush, g'ayriijtimoiy xatti-harakat, ruhiy holat, deviant xulq-atvor.

THE IMPORTANCE OF SCHOOL AND COMMUNITY COOPERATION IN PROPER EDUCATION OF SCHOOL STUDENTS

Mirzaeva Kamola Uralovna

International Nordic University Faculty of Education and

Psychology 1st year graduate student

mirzaevakamola25@gmail.com

Phone number: +99 890 896 88 06

ABSTRACT

In this article, the psychological mechanisms of perfect education of schoolchildren are studied. The issues of family, community and educational institution cooperation in order to reduce the causes of crime committed by young people, various factors, and negative traits are highlighted.

Key words: youth education, well-rounded personality, delinquency, family, marriage, antisocial behavior, mental state, deviant behavior.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KIRISH

Mamlakatimizning taraqqiyot bosqichida, davlat darajasida amalga oshirilayotgan - kamolotga yetaklaydigan tadbirlarning majmuasini inobatga olib, yoshlar davri deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz. Jamiyat tarixida yoshlar imkoniyatiga e'tibor qaratilishi o'z an'alariga ega bo'lib, yoshlarga taraqqiyotni ta'minlovchi kuch, tinchlik va barqarorlikni himoyachisi va vorisi sifatida e'tibor qaratib kelingan. Voyaga yetmagan o'smirlar o'rtasida yomon illatlarni kamaytirishning psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishini aniqlash usullarini chuqur o'rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhim sanaladi.

Bu borada davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviy barkamolligi masalasiga alohida e'tibor qaratilishini nazarda tutgan holda: "Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi"[1] - deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, yoshlarga oid davlat siyosatining izchiligini ta'minlash maqsadida 2019 yilning 19 yanvarida qabul qilingan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da ham o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan unda, asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida "xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab- quvvatlanishi yanada kuchaytirish lozim" [2]ligi qayd etilgan.

Shuning uchun maktab o'quvchilari o'rtasida yomon illatlarning oldini olishning psixologik mexanizmlarini tadqiq va tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonun, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yoshlarga oid davlat dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi hamda 2019 yil 19 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, ma'ruzalari, kitoblari va asarlarida ilgari surilgan konseptual g'oyalar metodologik asos sifatida olindi.

Shuningdek, xorijiy va milliy adabiyotlar tahlil etilib, ulardagi qarashlar, nazariyalar, g'oyalarning mazmun-mohiyati psixologik jihatdan tadqiq etildi. Jumladan, o'smir yoshlarning psixologik xususiyatlari mavzusiga oid fikr-mulohazalar mamlakatimiz psixolog olimlar E.G'.G'oziev, V.M.Karimova, R.S.Samarov, M.G.Davletshin, Sh.A.Do'stmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova va boshqalarning asar va kitoblarida o'z aksini topganligini kuzatish mumkin. Yoshlarning yomon illat va huquqbuzarlikka oid xatti-harakatlari bilan bog'liq sotsiologik tadqiqotlar olib borgan olimlarning asarlari va kitoblari ham tahlil etildi. Jumladan, M.Bekmurodov, M.G'anieva, A.Yunusov, J.Matkarimova, X.Xusanova va boshqalarning ilmiy izlanishlari, chop etgan monografiyalarida o'z aksini topgan.

Xalqaro ilmiy jurnallari materiallaridan ham foydalanildi. Xususan, xorijlik olimlardan K.Kwon, S.Shin, S.J.Park va boshqalarning ilmiy maqolalari, shuningdek, mavzuni o'qitishga oid pedagogik texnologiyalar va didaktik jihat bilan bog'liq masalalar ham atroflicha tahlil etildi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, muammoli vaziyat, mantiqiy va tizimli tahlil, so'rov, kuzatish, statistik tahlil, guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Maktab o'quvchilarining salbiy odatlarini rivojlanishiga ta'sir etadigan omillarni tahlil qilish orqali quytidagilarni ko'rishimiz mumkin:

- oiladagi va turmushdagi salbiy ta'sirlar;
- nosog'lom turmush tarzi;
- yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish;
- o'qimaydigan voyaga yetmaydiganlarning uzoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaganligi;
- hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e'tiqodlarning turg'un emasligi;
- ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TADQIQOT NATIJASI

Maktab o'quvchilarini ijobiy fazilatlarini rivojlantirish orqali barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga ko'p omillar ta'sir etadi. Bu omillar aynan oila bilan bog'liq bo'lib, yuz foiz deb olinganda, uning o'ttiz foizi notinch, axloqsiz, janjalli va kriminogen oila hissasiga to'g'ri kelsa, tashqi tomondan "tinch" ko'rinuvchi - xudbinona - molparast, ruhiy yaqinligi bo'lmagan va pedagogikadan xabarsiz oilalar oltmish foizni tashkil etishini kuzatish mumkin.

O'smir yoshdagi yoshlarlar ruhiyatining g'ayriijtimoiy ko'rinishlarga imkon beruvchi holatlarni quyidagilarda ko'ramiz:

-eng muhim ma'naviy tushunchalar va kategoriyalar (botirlik, qo'rqqoqlik, sadoqat, sotqinlik, do'stlik, xiyonat, qaxramonlik, mardlik, kamtarimlik va boshqalar) haqiqiy mazmuni va ahamiyati to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar;

-ayrim shaxslar, voqealar, hodisalarni baholashda xato fikrlash, bunda insonni barcha xususiyatlari va sifatleri yig'indisiga ko'ra baholay olmaslik, ya'ni biryoqlamalik;

-insonni haqiqiy motivlari va maqsadlarini hisobga olmay, uning xulq-atvoriga oid tashqi ko'rinishlarini afzal ko'rish;

-shaxsning shakllanishi, organizmning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi, to'la voyaga yetish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ruhiyatning o'zgaruvchanligi;

-his-tuyg'ularni jilovlay olmaslik, o'zgaruvchanlik, o'ta ta'sirchanlik (qo'zg'aluvchanlik), kayfiyatning tez-tez o'zgarishi;

-zarur bilim va tajribaga ega bo'lmagan holda atrof-muhitga, barcha yangi va notanish narsa hamda hodisalarga nisbatan keskin munosabat.

DISKUSSIYA (OLIMLARNING O'ZARO BAHS-MUNOZARALARI)

Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim". Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obo' olib keladigan yuzlarini yoruq va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosga ega. Bu meros bugungi avlodni, insonparvarlik, mehr- muhabbat, oqibat, vatanparvarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Xozrgi kunda bola



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishlariga ota-onalar ma'suldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi[6].

XULOSA

Shunday qilib, maktab o'quvchilarining barkamol inson bo'lib yetishishiga to'sqinlik qiladigan sabablarini o'rganish va tadqiq etish, ma'lum ma'noda ular o'rtasida bunday yoshga doir salbiy odatlarni erta aniqlash, jinoyatga boshlaydigan salbiy oqibatlarini oldini olish va voyaga yetmagan yoshlarda sog'lom turmush tarzini to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini kegaytirish imkonini berishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2019 yil - Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili. Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 29 dekabr, № 271-272 (7229- 7230).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni-<http://xs.uz/uzkr/post/2017-2021-jillarda-ozbekiston-respublikasini-rivozhlantirishning-beshta-ustuvor-jonalishi-bojicha-harakatlar-strategiyasini-faol-investitsiyalar-va-izhtimoiy-rivozhlanish-jilida-amalga-oshirishga-oid-davlat-dasturi-togrisida>
3. Juraevna, N. N. (2021). Development of Communicative Competence the Youth as a Factor of Affecting Competitiveness (On the Example of Foreign Language Teaching). Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 73-79.
4. Nazarova, N. J., Muratova, D. A., & Jumaniyazova, N. S. (2022). O'ZBEKISTON TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMIDA AYOQLARNING O'RNI VA ROLI. Scientific Impulse, 1(3), 331-336.
5. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010 yil, № 9, 343-modda).
6. Gulshan Nozimjon Qizi A'Zamova Yosh avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining pedagogik manbalarini o'rganish // Science and



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Education. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yosh-avlodni-tarbiyalashda-oila-mahalla-va-maktab-hamkorligining-pedagogik-manbalarini-organish> (data obrasheniya: 08.02.2024) .

7. Nazarova, N. J. (2022). yoshlar raqobatbardoshligini ta'minlashda liderlik omili. *pedagog*, 1(2), 431-442.

8. Samarov, R. S. (2016). Ijtimoiy taraqqiyotning ma'rifiy poydevori. *Современное образование (Uzbekistan)*, (12), 11-17.

9. Nazarova, N. J. (2021). youth competition in providing social development. *Научный редактор*, 104.

10. Raxmonov, D. A. (2017). the social-cultural peculiarities of social work (in the model of servicing older people). *Theoretical & Applied Science*, (11), 285-288.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE
SERIES